



AHMAD YUGNAVIY VA UNING “HIBAT UL-HAQOYIQ” ASARINING G’OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Azimova Muniraxon Akmaljon qizi

Qo’qon Universiteti Andijon Filiali IT va Ijtimoiy-Gumanitar fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o’qitish o’zbek tili yo’nalishi 25-04-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Yugnaviyning hayoti va ijodiy merosi, ayniqsa uning “Hibat ul-haqoyiq” asarining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan axloqiy, ma’rifiy va diniy qarashlarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Dostonning janr xususiyatlari, til va uslub masalalari hamda turkiy adabiyot taraqqiyotidagi o’rni yoritiladi.

Kalit so’zlar: didaktik doston, axloqiy qarashlar, ma’rifat, komil inson, hikmat, turkiy adabiyot.

Abstract: This article analyzes the life and literary heritage of Ahmad Yugnaviy, with particular attention to the ideological and artistic features of his work Hibat ul-haqoyiq. The study examines the moral, educational, and religious ideas expressed in the poem and reveals their conceptual significance. Special emphasis is placed on the genre characteristics of the work, its language and stylistic peculiarities, as well as its role in the development of Turkic literature. The research highlights the importance of the didactic tradition in shaping the spiritual and ethical worldview of the period.

Keywords: didactic poem, morality, enlightenment, ethical views, Turkic literature, artistic style.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь и творческое наследие Ahmad Yugnaviy, с особым вниманием к идейно-художественным особенностям его произведения «Hibat ul-haqoyiq». В работе раскрываются содержание и сущность нравственных, просветительских и религиозных



взглядов, отражённых в поэме. Анализируются жанровые особенности произведения, вопросы языка и стиля, а также определяется его место и значение в развитии тюркской литературы.

Ключевые слова: дидактическая поэма, нравственные взгляды, просвещение, религиозные идеи, тюркская литература, художественные особенности.

XI–XII asrlar turkiy adabiyot tarixida muhim davr hisoblanadi. Bu davrda didaktik ruhdagi asarlar keng tarqalib, insonni ma'naviy kamolotga yetaklash g'oyasi ustuvor bo'ldi. Ana shu jarayonda Ahmad Yugnaviy ijodi alohida ahamiyat kasb etadi.

"Hibat ul-haqoyiq" asari o'z mazmuni va badiiy xususiyatlari bilan turkiy yozma adabiyotning dastlabki yirik namunalaridan biri sifatida baholanadi. Asarda komil inson tarbiyasi, ilmning fazilati, axloqiy poklik, til odobi kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

"Hibat ul-haqoyiq" - Ahmad Yugnakiy tomonidan yozilgan asar. O'ziga xos axloq kitobi bo'lgan bu asarga Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilgan. U islom dini axloqini tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan.

"Hibat ul-haqoyiq" yozma manbaining to'liq nusxalaridan biri Hirotda, XV asrda qadimgi uyg'ur yozuvi asosida ko'chirilgan, asarning ikkinchi to'liq nusxasi 1480-yilda Istanbulda Abdurazzoq Baxshi tomonidan arab yozuvi bilan ko'chirilgan. Dostonning arab yozuvi bilan ko'chirilgan uchinchi nusxasi XVI asr boshlariga mansub. "Hibat ul-haqoyiq"ning asosiy nusxalari Turkiya kutubxonalarida, ayrim parchalardan iborat bir nusxasi Berlinda saqlanmoqda. Asar 256 bayt, ya'ni 512



misradan iborat. G'azal va to'rtliklar she'r shaklida yozilgan. Adib Ahmad Yugnakiy ham boshqa o'tgan buyuklar kabi Allohni madh etish bilan boshlaydi.

Ushbu asar Ahmad Yugnakiyning bizgacha yetib kelgan yagona asaridir. Asar o'zidan oldin yaratilgan pand-nasihat ruknidagi asarlarga hamohang tarzda yaratilib, o'zbek mumtoz adabiyoti durdonalaridan biriga aylandi. Asarni qadimgi turkchadan Bahrom G'oyib tarjima qilgan. Shu sababli mutolaa davomida kitobxon notanish so'zlarga duch kelmaydi va baytlar ma'nosi oson anglashiladi.

Ahmad Yugnakiy o'zini shoir emas, adab muallimi deb ataydi. Asar xotimasida adibning o'zi asarni yozishdan maqsadini quyidagicha bayon etadi:

Yuqoridagi misralardan ma'lum bo'ladiki, adibning bu kitobni yozishdan maqsadi insonlarni odob-axloqqa chaqirish, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Asarni mutolaa qilar ekanmiz, adib o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishganiga, ya'ni har taraflama yetuk asar yaratilganligiga amin bo'lamiz.

Asar boshlanmasi an'anaviy tarzda, ya'ni Allohga hamd, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning madhi bilan boshlangan. So'ngra: Choriyorlarga ham salom yo'llayman, Tirikman, ularning yo'lin qo'llayman

- deya choriyorlar ya'ni xalifalarga ham madh aytiladi. An'anaviy boshlanmadan so'ng ulug' amir Dod Sipohsolarbekning ta'rif-tavsifini keltiradi. Hukmdordagi behisob fazilatlarni sanar ekan, undagi sahovatpeshalik va adolatparvarlik sifatlarini ulug'laydi. Asarda Dod Sipohsolarbek nafaqat odil podshoh, balki komil inson sifatida ham gavdalanadi.



Ilm-ma'rifatga chorlash barcha davrlar adabiyotining eng dolzarb mavzusi bo'lgan. Sevikli payg'ambarimiz Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallam: "Ilm talab qilish har bir muslim uchun farzdir", deganlar. Demakki, ilm olish inson hayotidagi zaruriyatlardan biri. Ilm inson hayotini oftob misol yoritadi, ko'nglini ravshan qiladi, aqlini yanada o'tkir qiladi. U bizni kamolot sari yetaklaydi. Jaholat yaralagan, so'qir ko'ngil ko'zimizga malham bo'lguvchi ham ilmdir. Ahmad Yugnakiy o'z asarida ilm saodatga yetaklashini, baxtning kaliti ilmda ekanligini ta'kidlaydi. Barcha zamonlarda ham ilm sohiblari va ularga qarama-qarshi tarafda johillar ham bo'lishgan. Muallif bilimli va bilimsiz insonlarni taqqoslar ekan, bilimli tillo dinorga (pul) ga qiyoslansa bilimsiz, johil odam xalq orasida doim xor-u zor bo'lishi aytiladi. Suyakning ko'rki ilik bo'lganidek, insonning ko'rki uning aqli, ilmi ekanligi ta'kidlanadi. Ilmli fozillar bu dunyodan ko'z yumishsa-da ularning nomi barhayot bo'lishi, johillar tirik bo'lsa-da ularning el orasida hurmati va o'rni bo'lmasligi tasvirlanadi.

Xaloyiqqa ibrat, ta'lim berguvchi, Kitob bitdim, odobga chaqiruvchi.

Tenglasa arzirli so'zga tenglasin, O'z qadrini misli durday terguvchi.

Bir bilimli bilimsizning mingiga teng, Ming bilimsiz bilimliga bo'lolmas yeng.

deya ajoyib ta'rif beradi Ahmad Yugnakiy. Oqil va nodon insonni qiyoslar ekan, oqil inson doim o'ylab, fikrlab o'rnida gapirishini nodon bo'lsa gapning mavridini bilmay noo'rin so'zlashi va natijada doim pand yeyishini aytadi. Nodoning bunday har qadamda qoqilishiga sabab uning bilimsizligidandir, deyiladi asarda.



Ilk islom davrining turkiy tildagi madaniyat obidalari bizgacha juda kam yetib kelgan. Hozircha turkiy adabiyotning bizga ma'lum namoyandasi mashhur "Hibat ul-haqoyiq" asarining muallifi Ahmad Yugnakiydir. U haqidagi ma'lumotlarni biz XV asrga oid Alisher Navoiy, Arslon xoja Tarxon va boshqalar yozib qoldirgan ma'lumot hamda shoirning o'z yozganlaridan bilamiz.

Ahmadning bobosi Movarounnahrda islom dinini ilk qabul qilgan turkiy qavmlardan bo'lib, bu voqea taxminan Qutayba zamonida (milodiy 706–715-yillar orasida) yuz bergan. Bo'lg'usi shoirning otasi Mahmud Yugnakiy VIII asrning birinchi yarmida dunyoga kelgan. Manbalarda Ahmadning tug'ilgan joyi Yugnak deb ataladi. Bu nomdagi qishloqlar qadimgi Samarqand atrofi, Farg'ona vodiysi va Sirdaryo bo'ylarida mavjud bo'lgan. Mahmud Yugnakiyning yigit bo'lib yetilgan davrlari Abu Muslim Ummaviylar sulolasiga qarshi qurolli qo'zg'olon boshlagan 747–750-yillarga to'g'ri keladi. Adib Ahmad ham shu davrlarda tavallud topgan bo'lishi kerak. U onadan ko'zi ojiz tug'ilgan. Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi: "Haq subhonahu va taolo agarchi zohir ko'zin yopuq yaratgandur, ommo ko'ngil ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur". Ahmad yoshligidan juda qobiliyatli va ziyrak bo'lgan. Ko'zi ojizligi sababli o'zga turk yigitlari singari ot minib, qilich chopishga emas, Qur'oni karimni yod olib, Rasululloh hadislarini o'zlashtirishga jiddu-jahd ko'rsatgan.

Uning o'smirlik chog'larida oilasi Bag'dod yaqiniga ko'chib borgan bo'lsa kerak, uydin necha chaqirim piyoda yo'l bosib Bag'dodga, islom olamining eng buyuk alloma ustozlaridan, hanafiya mazhabining asoschisi Imomi A'zam Abu Hanifa an-No'mon ibn Sobit (699–767) huzuriga saboq olish uchun qatnay boshladi. Ushbu darslarda ilk islom madaniyatining yetakchi allomalari imom Abu Yusuf al-Ansoriy (731–804) va imom Muhammad ash-Shaybon (749–805) Ahmadning hamsaboqlari bo'lgani haqida Alisher Navoiy keltirgan ma'lumotlar nihoyatda



diqqatga sazovordir. Imomi A'zam Ahmadni barcha shogirdlaridan a'lo ko'rgani haqidagi naql to XV asr Navoiy davrigacha yetib keldi va "Nasoyim ul-muhabbat" kitobida aks etdi.

Adib Ahmad islomiy bilimlarni puxta egallab, o'sha davrning yetuk olimlaridan biriga aylandi. Bu sohada ma'lum ma'noda "al-Abad al-Kabir", "al-Adab as-Sag'ir" kitoblarining muallifi Ibn al-Muqaffaga (759-yili o'ldirilgan) munosib izdosh, arab olamining buyuk adibi al-Johizga (775–868) salaf bo'ldi. Uning ilmiy-nazariy risolalar yozgan yoki yozmagani bizga noma'lum.

Doston bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning g'oyalari zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarbdir. Shu jihatdan Ahmad Yugnaviy turkiy adabiyot tarixida munosib o'rin egallaydi.

Manbalarda Ahmad Yugnakiyning tug'ilgan joyi Yugnak deb ataladi. Bu nomdagi qishloqlar qadimgi Samarqand atrofi, Farg'ona vodiysi va Sirdaryo bo'ylarida mavjud bo'lgan. Ahmad onadan ko'zi ojiz tug'ildi. Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi: "Haq subhonahu va taolo agarchi zohir ko'zin yopuq yaratgandur, ammo ko'ngil ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur". Ahmad yoshligidan juda qobiliyatli va ziyrak bo'lgan. Ko'zi ojizligi sababli, o'zga turk yigitlari singari ot minib, qilich chopishga emas, Qur'oni karimni yod olib, Rasululloh alayhissalom hadislarini o'zlashtirishga jiddu-jahd ko'rsatgan.

Alisher Navoiy o'z asarida Adib Ahmad dostonining ushbu bobidan eng erkin timsolni keltirgan:

So'ngakka ilik tur, eranga bilik,
Biliksiz eran ul iliksiz so'ngak.



Bilim egasi vafot etganda ham uning nomi boqiy qoladi, deb xulosalaydi shoir, ammo bilimsiz kishi tirigida ham o'likdan farqi yo'qdir.

Adib Ahmad bilimsizlikni qoralab yana Rasululloh alayhissalom hadislariga murojaat etadi: “Tangri hech qachon johillarni aziz qilgan emas”. Ilm qadriga faqat ma'rifatli odam yetadi, nodonga esa nasihat befoydadir. Adib Ahmadning fikricha, bilim tuganmas boyligdir, u faqir kishini boy etadi, ilm ahlini esa arab ham, ajam ham olqishlaydi.

Ahmad Yugnakiyning aniq vafot etgan sanasi noma'lum, biroq tarixiy manbalar va tadqiqotlarga ko'ra, u XII asr oxiri — XIII asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan. “Hibat ul-haqoyiq” asari muallifi Samarqand yaqinidagi Yugnak qishlog'ida tug'ilgan mutafakkirdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Yugnaviy. Hibat ul-haqoyiq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. N. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. V. V. Bartold. Turkiston tarixi. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. B. To'xliyev. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent.